

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

SUVANOVA DILNOZA DILMUROD QIZI

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AKSIYADORLIK
JAMIYATLARIDA BIZNES-JARAYONLARNI SAMARALI
BOSHQARISH**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi

Raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni samarali boshqarish..... 3

Суванова Дилноза Дилмурод кизи

Эффективное управление бизнес-процессами в акционерных обществах на основе цифровых технологий..... 27

Suvanova Dilnoza Dilmurod kizi

Effective management of business processes in joint-stock companies based on digital technologies..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

SUVANOVA DILNOZA DILMUROD QIZI

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AKSIYADORLIK
JAMIYATLARIDA BIZNES-JARAYONLARNI SAMARALI
BOSHQARISH**

08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2358 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.rgsbm.uz) va "ZiyoNet".Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov Tuyg'un Uzoqovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy oponentlar:

Kenjabayev Aman Turgunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismailov Xusanboy Maxammadqosim ug'li
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "28" HO.2025 kuni soat 16 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy.Tel.: (99871)239-03-05; faks:(99871)239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya bilan Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs marakazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy. Tel.: (99871) 239-03-05; faks: (99871) 239-03-03; e-mail: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" HO.2025 kuni tarqatildi.
(2025-yil "18" HO.2025 dagi 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



D.V.Rasulova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

Z.U. Berdinazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d, dosent

A.T. Kenjabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global o'zgarishlar sharoitida jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun uni raqamlashtirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Bugungi kunda jahonda iqtisodiyotni raqamlashtirish uchun 2018-yilda atigi 1,0 trillion AQSH dollari sarflangan bo'lsa, 2025-yil uchun 3,0 trillion dollar sarflanish belgilangan. 2027-yil uchun esa 3,9 trillion dollar sarflash ko'zda tutilgan. Bu xarajatning 35,8 foizi AQSHga to'g'ri keladi. Qolgan xarajatlar Yevropa, Xitoy va Yaponiya davlatlariga to'g'ri kelmoqda¹. Jahon YAIM tarkibida raqamli texnologiyalarga xarajatlar 1,20 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 2,17 foizni, 2025-yilda 2,5 foizni tashkil qilishi belgilangan. 2027-yilga prognoz ko'rsatkichi esa 3,0 foizga etkazilishi kutilmoqda.² Jahondagi yirik kompaniyalardan Microsoft, Alphabet, Amazon va Meta 2023 yilda birgina sun'iy intellektga 151,0 mlrd. AQSH dollari sarflagan bo'lsa, 2024-yilda 246,0 mlrd. dollar va 2025-yilga esa 320,0 mlrd. AQSH dollari hajmida sarflashga qaror qilgan.³ Google kompaniyasi ham sun'iy intellektga 2024-yildagi 53,0 mlrd. AQSH dollari sarflagan bo'lsa, 2025-yilda uni 42 foizga, ya'ni 73,0 mlrd. AQSH dollariga ko'paytirishga qaror qilgan.

Shunga qaramay, jahonda biznes jarayonlarini raqamlashtirish jarayonida hali ilmiy asosda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

turli tizimlar o'rtasidagi integratsiya va ma'lumot formatlari o'zaro mosligining etarli emasligi;

ma'lumot sifati va metama'lumotlar uchun yagona standartlarni joriy etish zarurati;

kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda ma'lumotlar dahlsizligini ta'minlash masalalari;

avtomatlashtirilgan jarayonlarning investitsiyalar va mehnat unumdorligiga ta'sirini ishonchli mezonlar asosida baholashdagi murakkabliklar;

raqamlashtirish madaniyati va ko'nikmalarining etishmasligi, shuningdek, o'zgarishlarni samarali boshqarishning ilmiy-amaliy metodologiyasi hali to'liq shakllanmaganligi.

O'zbekistonda biznes jarayonlarini, ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalar asosida ularni boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki bu moliyaviy hisobotlarni shaffof qilish, korporativ boshqaruvni samaraliroq yo'lga qo'yish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Raqamlashtirish jarayoni aksiyadorlar uchun axborotning ochiqligi va tezkorligiga erishish, ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda strategik qarorlarni asosli qabul qilish imkoniyatini beradi. Biroq bu yo'nalishda ma'lum muammolar ham mavjud: birinchi navbatda, AJlarda yagona raqamli platforma va integratsiyalangan axborot tizimlarining etarli emasligi; ikkinchidan, korporativ madaniyatda raqamli transformatsiyani qabul qilishga doir psixologik va tashkiliy to'siqlar; uchinchidan

¹ <https://www.statista.com/statistics/534123/e-commerce-share-of-retail-sales-worldwide/>.

² <https://www.statista.com/statistics/870924/worldwide-digital-transformation-market-size/>

³ <https://help.ft.com/>.

esa mutaxassislar salohiyati va raqamli ko'nikmalarning etishmasligi. Shu bois, biznes jarayonlarini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston–2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF–6079-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-sonli, 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida”gi PF–101-sonli farmonlari, 2020-yil 28-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ–4699-sonli, 2024-yil 19-apreldagi “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–163-sonli, 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ–358-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilishdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi 166-son qarori, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida raqamli iqtisodiyot muhitida boshqarishni yanada takomillashtirishga, kompaniyalarning biznes jarayonlarini takomillashtirishga oid vazifalar ijrosini ta'minlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyat ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompaniyalarda korporativ boshqaruvning fundamental muammolari bo'yicha xorijlik olimlar A.Berle, G.Means, Andrey Shleifer, V.Vishny, R.Coase, E.Villiamson, Bob Tricker, V.Bratton, M.Bainbridge I. Bejnar, J. I. Igvilo, P. Konseysao, S. Margea, N. Monchev, V. D. Xartman, R. Fostr, Frank N. Webster, A. Dinis, Y. Hsu⁴, kompaniyalarda boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy qilish, biznes jarayonlarni boshqarish va raqamli ekotizim muammolari bo'yicha Vom Brocke, J., & Mendling, J., Kaplan, A. M., & Haenlein, M. Wamba, S. F., Akter, Pall G.A, Williams, C. A., & Boardman, L. Baiyere, A., Salmela, H., & Tapanainen, T. Putra, H. R., & Santoso, H. B. Gabryelczyk, R. Pereira, C. S., & Romero, F. Kowalkiewicz, M., & Dootson⁵, K.Shoulz, R.Uittington, R.Kloviene, E.Gimzauskiene, D.Misiunas,

⁴ Berle A., Means G. The modern Corporation and Private Property. - New York: Macmillan, 1932; Andrei Shleifer & Robert W. Vishny, A Survey of Corporate Governance, 52 J. FIN. 737, 737 (1997); Ronald Coase, The Nature of the Firm, *Economica* 386 (1937); Olliver E. Williamson, The Economics of Discretionary Behavior: Managerial Objectives in a Theory of the Firm (1964); Bob Tricker, Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices William Gower Press, 2015; W. Bratton and Michael L. Wachter, Shareholder Primacy's Corporatist Origins: Adolf Berle and 'The Modern Corporation', 34 J. of Corp. L. 99, 104 (2008); Stephen M. Bainbridge, The new Corporate Governance in Theory and Practice 98-99, 103-104, 192- 194,200 and 233 (2008).

⁵Vom Brocke, J., & Mendling, J. Business process management cases: Cham: Springer.2018., Kaplan, A. M., &

L.Putterman, D.Xiao-Yuan, A.Szamosszegi, C.Kyle, K.Naqvi, E.Ginting, F.Nita, S.Teguh, A.Adeyemi, B.Ackers, Ойхман Е., E.Papenfub, rossiyalik olimlar: A.Yakimov, A.Sokolov, A.Molotnikov, N.Slanova, D.Sorokin, X.Xarchilava, A.Bottayevlar olib borganlar⁶. O‘zbekistonlik olimlardan B.Xodiev, D.Suyunov, M.Xamidulin, R.Karlibaeva, M.Voxidov, D.Begmatova, A.Mirsoatov, I.Tursunov, N.Rasulov, B.Xaydarov, E.Xoshimov, Sh.Xusainov va boshqalar ham respublikada korporativ boshqaruv muammolarini tadqiq etish va rivojlantirishga munosib hissa qo‘shganlar⁷.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish va boshqarishning nazariy va amaliy muammolari A.Kenjabaev, G. Irgasheva, N. Makhmudov, B. Rozimov, M.Sapyazov, S.Rustamov, N. Abdurakhmonov, A. Kucharov, A. Bobojonov, A.Abdurakhmonov, A.Mirzayev, K. Shodiyev, F.Qurvonboyeva, S. Burikhujayeva, E.Xalmuradov N.F.G‘ulomova, Z.M. Otakuziyeva, R.R.Sultanov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

Biroq aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari etarlicha tadqiq etilmagan. Shu boisdan mazkur yo‘nalishda ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Haenlein, M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media. *Business Horizons*, 53(1), 2010. 59–68, Wamba, S. F., Akter, S., Edwards, A., Chopin, G., & Gnanzou, D. How ‘big data’ can make big impact, 2015. 234–246., Schallmo, D. R. A., Williams, C. A., & Boardman, L. Digital transformation now! Guiding the successful digitalization of your business model. Cham: Springer. 2020, Gentsch, P. AI in marketing, sales and service: How marketers without a data science degree can use AI, big data and bots. Cham: Springer. 2018., Baiyere, A., Salmela, H., & Tapanainen, T. Digital transformation and the new logics of business process management. 2020. 259., Putra, H. R., & Santoso, H. B. The role of business process management in digital transformation: A systematic literature review. 2023. 113., Gabryelczyk, R. Motivations to adopt business process management in view of digital transformation: 2022. 40–56., Pereira, C. S., & Romero, F. The importance of digital transformation in international business. 2022., Kowalkiewicz, M., & Dootson, P. The economy of algorithms: Rise of the digital minions. Milton Park: Routledge. 2022.

⁶ Шоулз К., Уиттингтон Р. Корпоративная стратегия. Теория и практика. – М.: Вильямс, 2007. – С. 71.; Kloviene Ruta, Edita Gimzauskiene and Dalius Misiunas. 2015. The Significance of SOEs Performance Measurement as Policy Instrument in Baltic Countries. *Procedia – Social and Behavioral Sciences* 213: 286-92; Putterman, Louis, and Xiao-Yuan Dong. 2000. China’s State-Owned Enterprises: Their Role, Job Creation, and Efficiency in Long-Term Perspective. *Modern China* 26(4): 403-47; Szamosszegi A., Kyle C. An Analysis of State-owned Enterprises and State Capitalism in China. October 26, 2011. Pall G.A. Quality Press Management. Englewood Cliffs, New Jersey: Prentice-Hall, 1987. Washington, DC: Capital Trade, Incorporated, 2011. 122 p.; Naqvi K, Ginting E. 2020. State Owned Enterprises and Economic Development in Asia. ADB Publication: Reforms. Opportunities, And Challenges For State Owned Enterprises, Chapter 1: 1-44; Ойхман Е.Г. Реинжиниринг бизнеса: реинжиниринг организаций и информационные технологии. М. : Финансы и статистика, 1997. – С-336; Nita Ferdiana, Teguh Sugiyarto 2022: State-Owned Enterprises (SOEs): The Role in Economic Development and The Determinant of Its Performance, *Jurnal Ekonomi dan Kcbijakan Pembangunan* 11(2): 91-107; 2022: Vol. 23 No. 1, January 2022; Papenfu B, U. (2020). Corporate governance of state-owned enterprises: Conceptualization, challenges and perspectives for the public corporate governance field. In Bernier, L., Florio, M., & Bance, P. (Eds.), *The Routledge Handbook of State-Owned Enterprises* (1st ed.); Якимов А.В. Корпорации с государственным участием//Инвестиции и инновации в промышленности. – 2014. – № 7. – С. 12.; Молотников А.Е., Текутьев Д.И. Правовые проблемы участия государства в акционерных обществах//Имущественные отношения в Российской Федерации. – Москва, 2012. – № 2. – С. 35.; Сорокин Д.А. Особенности корпоративного управления в компаниях с государственным участием *Экономические науки. Вестник Челябинского государственного университета*. Челябинск, 2018. - №3. – С. 97-103.; Харчилава Х.П., Боттаев А.Л. Корпоративное управление в компаниях с государственным участием//Управление. – Москва, 2017.-№1. – С. 89-90.

⁷ Суюнов Д.Х., Елмирзаев С.Е.Корпоратив бошқарув. Дарслик 2022 йил. 448 бет., Суюнов Д.Х., Хошимов Э.А.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq «Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni boshqarishni takomillashtirish» mavzusi bo'yicha ilmiy ishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiya ishining maqsadi raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni samarali boshqarishga oid ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tizimlashtirish hamda mualliflik ta'rifini ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslarini o'rganish va tokomillashtirish;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish va uning ijobiy tomonlaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishning joriy holatini va uning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyatini raqamlashtirish natijadorligini ekonometrik baholash;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash samaradorligini va raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish darajasini baholash uslubiyatini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining biznes-jarayonlari olingan.

Tadqiqot predmeti – raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardir.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida zamonaviy menejment yondashuvlari, monografik kuzatish, qiyoslash, tizimli va kompleks yondashuv, eksperiment, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tasniflash, iqtisodiy-statistik tahlil, reytinglash, ekspert baholash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rivojlangan mamlakatlarda biznes jarayonlarini tashkil etish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va korporativ raqobatbardoshlikni oshirishga oid tajribalarini o'rganish va tahlil qilish natijasida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirish bilan bog'liq “biznes jarayonlar”, “biznes jarayonlarni samarali boshqarish”, “biznes-jarayonlarni raqamlashtirish”, “raqamli biznes ekotizimi” kabi tushunchalarga mualliflik ta'riflari hamda raqamli texnologiyalar asosida biznes-jarayonlarni boshqarish tizimini shakllantirishga uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlar tasniflanib, ular subjarayonlarga ajratildi va har bir jarayonni boshqarishga tavsiya etiladigan raqamli

texnologiyalarning tavsiyaviy ro'yxati shakllantirilib, alohida jarayonlar va aksiyadorlik jamiyati bo'yicha raqamlashtirish samaradorligi indeksini baholash uslubiyati taklif etildi;

aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli iqtisodiyotga sarflangan xarajatlar, asosiy fondlar tarkibida raqamli aktivlar ulushi va elektron platformalar orqali sotuvlar ulushi ko'rsatkichlari asosida mavjud ichki va tashqi muhit sharoitlarni hisobga oluvchi raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish darajasini baholashning indeksli usuli ishlab chiqildi;

biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishning joriy holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar, raqamlashtirish salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni hamda raqamli modellarini qo'llash imkoniyatlarini ekonometrik baholash asosida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmining 2030-yilga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

aksiyadorlik jamiyatlarining biznes-jarayonlari, ularni samarali boshqarishning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari, biznes-jarayonlarni samarali boshqarish mezonlarining tasniflanishi va biznes-jarayonlarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari hamda ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlili asosida yangicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqildi;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishning joriy holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning ishlab chiqarish hajmi, aktivlarning strukturasi, daromadlari, xarajatlari va sof foydaga ta'sirini ekonometrik baholash asosida biznes-jarayonlarni takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

biznes jarayonlarning tasniflanishi va ular doirasida raqamlashtirilishi lozim bo'lgan vazifalar doirasida biznes jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish matritsasi taklif etildi;

sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalari asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarish tizimini shakllantirishga uslubiy yondashuv va biznes-jarayonlarni diagnostika qilish modeli hamda kompaniyalarning mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmining 2030-yilga prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvlar, usullar, nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining statistik va hisobot ma'lumotlaridan, aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, tijorat banklarining hisobotlaridan olinganligi, xalqaro va Respublika bo'yicha tashkil qilingan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda to'liq aprobatsiyadan o'tganligi, xulosa, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, resurslar taqsimotini optimallashtirish, korporativ faoliyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli

transformatsiya jarayonlarini baholashning metodologik modelini hamda raqamlashtirish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish va ular asosida boshqaruv samaradorligini baholashning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalar va tavsiyalar aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezkor va aniq ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish, aksiyadorlik jamiyatlarining raqamlashtirish darajasini kompleks baholash, ularning raqobatbardoshligini oshirish, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va strategik rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida "Strategik va operatsion menejment", "Korporativ boshqaruv", "Raqamli biznes boshqaruvi" kabi fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ta'lim kontentlari, o'quv qo'llanmalar va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni samarali boshqarish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlar, ularni samarali boshqarishga berilgan ta'riflar, qarashlarning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlari, biznes-jarayonlarni samarali boshqarish mezonlarini tasniflanish, biznes-jarayonlarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari va ilg'or rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida yangicha yondashuv taklifi O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi (2025-yil 07-iyuldagi 01/53-sonli ma'lumotnoma), "O'zbekneftegaz" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 03-18-8-917-sonli ma'lumotnoma) va "O'zbektelekom" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 27-03-38/4899-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur ilmiy taklifning Bank-moliya akademiyasi, "O'zbekneftegaz" AJ va "O'zbektelekom" AJ larning o'quv markazlari o'quv jarayoniga joriy etilishi natijasida tinglovchilarning raqamli texnologiyalar asosida biznes-jarayonlarini boshqarish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni yanada kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirishga imkon yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni tasniflash, subjarayonlarga ajratish va raqamli texnologiyalarning tavsiyaviy ro'yxatini shakllantirish, alohida jarayonlar va aksiyadorlik jamiyati bo'yicha raqamlashtirish samaradorligi indeksini baholash uslubiyati "O'zbekneftegaz" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 03-18-8-917-sonli ma'lumotnoma) va "O'zbektelekom" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 27-03-38/4899-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. AJ lar biznes-jarayonlarini raqamlashtirish samaradorligini 1 foizga oshirish hisobiga ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmini o'rtacha 10,8 foizga, sof foydaning esa 2,5 foizga yoki o'rtacha 11,9 mlrd. so'mga oshirishiga erishilgan. Raqamli yechimlar asosida mehnat unumdorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va foyda o'sishi hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish, inson kapitalini rivojlantirish, mehnatga haq to'lash fondini kengaytirish, xodimlar daromadlarining o'sishi va ularning ijtimoiy farovonligi yaxshilash imkoni yaratilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish

darajasini baholashning indeksli usuli bo'yicha taklifning "O'zbekneftgaz" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 03-18-8-917-sonli ma'lumotnoma) va "O'zbektelekom" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 27-03-38/4899-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilishi natijasida raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish darajasining 3 foizga oshishi hisobiga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining 4 foizga oshishiga va xarajatlarni esa 2,3 foizga qisqartirishga erishilgan. Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi korxonalar faoliyatida shaffoflik va samaradorlikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratilishi, xodimlar malakasining yuksalishi, xizmat va mahsulotlar sifati hamda iste'molchilar manfaatlarining yaxshiroq himoya qilinishiga xizmat qiladi;

biznes jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishning joriy holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlar, raqamlashtirish salohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar hamda raqamli modellarini qo'llash imkoniyatlarini ekonometrik baholash asosida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmining 2030-yilga prognoz ko'rsatkichlari "O'zbekneftgaz" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 03-18-8-917-sonli ma'lumotnoma) va "O'zbektelekom" AJ (2025-yil 03-oktyabrdagi 27-03-38/4899-sonli ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur taklifning prognoz ko'rsatkichlari asosida "O'zbektelekom" AJda 2030-yilda 2024-yilga nisbatan xizmat ko'rsatish hajmi 1,8 barobarga, sof foyda 2,1 barobarga oshirilishiga erishiladi. Shu asosida aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli strategik rivojlantirish dasturlariga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 2 ta, xalqaro nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanlarda 10 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, uni dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni boshqarishning nazariy asoslari" nomli birinchi bobida raqamli texnologiyalar

sharoitida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy konsepsiyalari yoritilgan. Unda aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari, samarali boshqarish mezonlari asosida ularni tasniflash masalalari hamda biznes jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik jihatlarini tadqiq etilgan. Biznes-jarayonlar va raqamli iqtisodiyot borasida turli yondashuvlar o'rganilgan, rivojlanish evolyutsiyasi tasniflangan va umumlashtirilib, mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajriba tahlili amalga oshirilgan hamda ushbu masala borasida AQSh, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoy, Germaniya kabi mamlakatlarning tajribalari tahlil etilib, bunda aksiyadorlik jamiyatlarining biznes-jarayonlarini boshqarish va unga raqamli texnologiyalarni jalb qilishda alohida o'rin egallashi qayd etilgan.

Hozirgi davrda global iqtisodiyotning turbulent rivojlanishi va keskin raqobat muhiti kompaniyalar oldiga biznes-jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, ularni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda samaradorlikni oshirish talabi qo'yilmoqda. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlarida bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki aksiyadorlar manfaatdorligini ta'minlash, korporativ madaniyatni rivojlantirish va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Mazkur bob doirasidagi tadqiqotlarimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ tashkilotlarda biznes jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga oid klassik namoyondalar, xorijiy va mahalliy olimlarning zamonaviy izlanishlari atroflicha o'rganib chiqildi. Ularning asosida biznes jarayonlarga inson, resurs, texnologiya va ma'lumotlardan foydalanib, mijoz uchun qiymat yaratadigan, mantiqiy bog'liq va takrorlanuvchi faoliyatlar zanjiri sifatida qaralgan. Shu jarayonlar orqali tashkilot o'z maqsadlariga erishadi, ichki samaradorlikni oshiradi va mijozlar bilan munosabatlarni mustahkamlaydi.


Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar ham o'z qarashlarini ilgari surgan. Jumladan, ISO (International Standards Organization), APQC (American Productivity & Quality Center), OMG (Object Management Group), WEF (World Economic Forum), McKinsey & Company, BCG (Boston Consulting Group), Deloitte, PwC kabi nufuzli tashkilotlar biznes jarayonlarni kirish resurslarini chiqish natijasiga aylantiradigan, qiymat yaratuvchi va BPMN orqali modellashtirilishi mumkin bo'lgan tizimlashtirilgan faoliyatlar sifatida izohlaydi. Bu tashkilotlar biznes jarayonlarni global standartlashtirish, klassifikatsiyalash va sifat menejmenti tizimlari bilan uyg'unlashtirish orqali samaradorlikni ta'minlashga alohida urg'u beradilar.

Olimlar va tashkilotlarning turli qarashlarini tahlil qilishdan ko'rinadiki, biznes jarayonlari va ularni boshqarishining mazmun-mohiyati universal va kompleks xususiyatga ega va asosan mijozlar uchun qiymat yaratishga yo'naltirilgan faoliyatlar to'plamini anglatadi.

Biroq raqamli iqtisodiyot sharoitida mazkur tushuncha yanada chuqur mazmun kasb etmoqda. Fikrimizcha, muammoni o'rganishda biznes-jarayonlarni boshqarishdan tortib, samarali boshqarish, raqamlashtirish va nihoyat aksiyadorlik jamiyatlarida

raqamli boshqaruvni joriy etish kabi bosqichma-bosqich yondashuv, ilmiy tadqiqotlarda hamda amaliyotda eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Avvalo, biznes jarayonlarining mazmun-mohiyatini anglash va ularni qiymat zanjiriga bog‘lash talab etiladi. Keyinchalik, samarali boshqarish orqali qaror qabul qilish sifatini oshirish, resurslarni maqbul taqsimlash va mijozlar qoniqishini ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Shuningdek, raqamlashtirish bosqichida sun‘iy intellekt, Big Data, IoT va blockchain kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish jarayonlarni tezkor, shaffof va strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan holda amalga oshirish imkonini beradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun maxsus yaratiladigan raqamli boshqaruv modeli korporativ shaffoflik, hisobdorlik, innovatsiyaga ochiqlik va hamkorlik madaniyatini mustahkamlaydi. Bu esa aksiyadorlar, menejerlar va xodimlar o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytiradi, barqaror rivojlanish va xalqaro raqobatbardoshlikni ta‘minlaydi. Shu bois, taqdim etilgan ketma-ketlik asosida nazariy asoslarni o‘rganish va tadqiqotlarni olib borish, amaliy natijalarning barqarorligi, korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash va milliy hamda xalqaro iqtisodiy tizimdagi integratsiyani kuchaytirish nuqtai nazaridan katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. Biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirish bilan bog‘liq tushunchalarga mualliflik yondashuvi⁸

O‘zbekistonda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini samarali boshqarish, uning nazariy asoslari va o‘ziga xosligini alohida yondashuvlar orqali nazariy va amaliy jihatidan o‘rganish va uning korporativ boshqaruv samaradorligiga ta‘sirini aniqlash, biznes muhitning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, shu orqali aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, boshqaruv samaradorligini ta‘minlashda axborot

⁸ Muallif ta‘riflari asosida tuzilgan

texnologiyalaridan foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilish zaruriyati tug'ilmoqda.

Tahliliy natijalar asosida biznes jarayonlarni boshqarishdagi ayrim muammolarni ko'rib chiqish mumkin bo'ladi (1-jadval).

Raqamlashtirish hisobiga korxonada biznes jarayonlarini baholash, optimallashtirish va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish xos ravishda biznes jarayonlarni tasniflashni taqozo etadi.

1-jadval

Biznes jarayonlarni boshqarishdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari⁹

Kamchiliklar	Tavsif	Potensial yechimlar
Jamiyatni boshqarishda raqamli transformatsiya jarayonlarining sust amalga oshirilayotganligi	Ko'p aksiyadorlik jamiyatlari hali ham qog'oz asosidagi ishlarni ko'p qo'llaydi, bu jarayonlarning sekinligiga va xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelmoqda	Jamiyatni va uning biznes jarayonlarini boshqarishga raqamli texnologiyalarni joriy etish ERP (Enterprise Resource Planning System) tizimlari orqali jarayonlarni avtomatlashtirish
Jamiyatning moliyaviy va boshqa resurslarning cheklanganligi	Yangi texnologiyalarni sotib olish va yangi tizimlarni joriy etish uchun moliyaviy cheklovlar mavjudligi	Jamiyatning moliyaviy resurslarini oshirish uchun davlat yoki xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish, IPO va SPO tashkil etish
Jamiyat boshqaruvi va xodimlarining malaka va tajribasining etishmasligi	Xodimlarning zamonaviy boshqaruv usullari va texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakasi etarli emasligi	Boshqaruv xodimlarni va mutaxassislarini o'qitish hamda malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirishni tashkil etish


Biznes jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va uzviyligi, tabiati, funksional xususiyatlari va yaxlitlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib, raqamlashtirishning alohida obyektlari sifatida ishlab chiqarish(1), logistika jarayonlari(2), marketing(3), boshqaruv(4), moliyaviy jarayonlar(5), inson resurslarini boshqarish(6), axborotlashtirish jarayonlari(7) sifatida 7 ta yirik yaxlitlangan biznes jarayonlari ko'rinishda tasniflashni maqsadga muvofiq deb topdik.

Har bir yirik yo'nalish doirasida ularning 42 ta tarkibiy subjarayonlari va ular orqali yechiladigan vazifalar aniqlab berildi. Bu usul biznes jarayonlarni tizimli ravishda tuzish, ularning o'zaro bog'liqligi va ketma-ketligini ta'minlash, shuningdek, raqamlashtirish imkoniyatlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Natijada, korxonada barcha jarayonlar bosqichma-bosqich ko'rib chiqilib, optimallashtirish va raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos yaratiladi. Shu asosida biznes jarayonlarini raqamlashtirishning asosiy vazifalari va ulardan kutiladigan natijadorliklarni tizimlashtirish mumkin.

Dissertatsiyada o'rganilgan xorijiy tajriba shuni ko'rsatdiki, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining YIMdagi ulushi alohida mamlakatlarda yuqori bo'lsa, ayrimlarida pastdir. Yuqori daraja shu kompaniyalarning biznes jarayonlari samarali boshqarilayotganligini va eng yaxshi biznes-modelga egaligi bilan ham tavsiflanadi.

⁹Adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ma'lumki biznes-jarayonlarni samarali boshqarishni sun'iy intellekt yordamida ta'minlash uchun albatta unga tegishli tartibda katta mablag'lar sarflash kerak bo'ladi (2-rasm). Ushbu diagrammadan ko'rinib turibdiki, barcha yirik davlatlarda oxirgi 2021-2024 yillarda katta hajmdagi mablag'lar sarflanishi davom etmoqda.



2-rasm. Sun'iy intellektga kiritilgan sarmoya miqdori (AQSH dollarida)

Biznes-jarayonlarni raqamli transformatsiya jarayonining amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etilishida rivojlangan mamlakatlar tajribasi muhimdir.

AQSH tajribasida sarmoya kiritishdan oldin kompaniyalar avvalo o'z biznes strategiyasini va uning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab oladi. Bu jarayonda insayderlar bilim va tajribalaridan samarali foydalanish, xodimlar malakasini zamon talabiga moslash hamda innovatsion g'oyalarni, jumladan, Silikon vodiysi startaplarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, AQSH kompaniyalari mijozlarni chuqur diagnostika qilishga katta e'tibor qaratadi, bu orqali bozordagi ehtiyoj va talablarni chuqur o'rganish, mavjud xato va kamchiliklarni tan olish hamda ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Bu tajriba sarmoya samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Xorij mamlakatlar tajribasi asosida O'zbekiston uchun biznes jarayonlarni raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqamiz. Yuqorida keltirilgan strategiya O'zbekiston uchun biznes jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha keng qamrovli strategiyani taqdim etadi. Bu strategiyaning asosiy xususiyatlari ishlab chiqilgan.

Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonni rivojlangan raqamli iqtisodiyotga ega davlatlar qatoriga olib chiqadi va Global Innovation Index, Digital Competitiveness Ranking kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga yordam beradi.


Dissertatsiyaning "**Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni raqamlashtirishning joriy holati tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishni

raqamlashtirishning joriy holati tahlili, bunda biznes-jarayonlarni tashkil qilish orqali korporativ boshqaruvning ta'siri baholangan.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida davlat ulushi yuqori bo'lgan 15 ta yirik aksiyadorlik jamiyatlari biznes jarayonlarini raqamlashtirish salohiyati o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Ushbu tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish deyarli barcha kompaniyalarda joriy etilmagan. Buning sababi, ko'plab tashkilotlar hali ham bu texnologiyalarni qo'llash uchun zarur resurslar va bilimlarga ega emasligi, yoki ular texnologik yangiliklarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashishidir.

Olib borilgan tahlil natijalari aksiyadorlik jamiyatlarining raqamli texnologiyalarning joriy holati, qaysi tarkibiy bo'limlarda keng foydalanilayotganligi, raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlarini ochib berdi. Ko'rib chiqilgan kompaniyalardan 4 tasida ("O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ "Mikrokreditbank" ATB, "O'zbekekspertiza" AJ, "Uzbektelekom" AK) *Big Data*, 6 tasida ("O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "Taxiatosh IES" AJ, "Chorsu buyum savdo kompleksi" AJ, "Mikrokreditbank" ATB, "Uzbektelekom" AK) *Data Analytics* va 1 ta kompaniya – "Uzbektelekom" Akda *Artificial Intelligence* ilg'or raqamli texnologiyalaridan foydalanilayotganligi ma'lum bo'ldi.


Aksiyadorlik jamiyatlari bo'yicha umumiy ma'lumotlari tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlari raqamli transformatsiyaga kiritilgan sarmoya miqdori sezilarli darajada farq qiladi (3-rasm).



3-rasm. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichlari

Ba'zi jamiyatlar katta miqdorda sarmoya kiritgan bo'lsa, boshqalari hali ham o'zlarining moliyaviy majburiyatlarini aniqlamoqdalar (4-rasm).

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarni jalb qilishda mablag' va resurslarning etishmasligi, kadrlarning etarli malakaga ega emasligi, texnologiyaga bo'lgan ishonchsizlik, madaniy va psixologik to'siqlar, raqobat ustunliklarining etarli emasligi, kerakli infratuzilmaning va raqamli strategiyaning yo'qligi kabi to'siqlar va qiyinchiliklar mavjudligi aniqlandi. Ularni yar birini bartaraf etish bo'yicha b takliflar ishlab chiqildi. Bu nafaqat korxonalarining o'zini raqamli transformatsiyaga tayyorlashni, balki butun iqtisodiy muhitni rivojlantirishni talab qiladi.



4-rasm. Aksiyadorlik jamiyatlarining raqamli texnologiyalarga kiritgan sarmoya miqdori¹⁰

Yirik aksiyadorlik jamiyatlari misolida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat samaradorlikka ta’sirini ekonometrik baholash amalga oshirilib, u raqamli transformatsiya jarayonlari orqali ushbu ko’rsatkichlarni oshirish modellarini yaratish uchun asosiy ilmiy yo’nalish hisoblanadi.

Taklif etilayotgan konseptual grafik model kompaniyalarning yillik sof foydasiga (Y_{it}) ta’sir qiluvchi asosiy raqamli omillarni ko’rsatadi. Modelda uchta asosiy mustaqil o’zgaruvchi tanlab olingan bo’lib, ular kompaniyalarning raqamlashtirish darajasini ifodalaydi. Har bir bog’liqlik tegishli gipotezalarga H_{01} , H_{02} , H_{03} asoslanadi (2-jadval).

2-jadval

Mustaqil o’zgaruvchilar tarkibi va ta’sir yo’nalishlari

Mustaqil o’zgaruvchilar		Gipotezlar		
X_1	Raqamli iqtisodiyotga sarflangan mablag’lar ko’rsatkichi kompaniyaning raqamli infratuzilmani rivojlantirish, texnologik yechimlar, xizmatlar va boshqa raqamli loyihalarga yo’naltirilgan umumiy investitsiyalarini o’z ichiga oladi.	H_{01}	Kompaniyaning raqamli iqtisodiyotga qilgan sarmoyalari oshgan sari yillik sof foydasi ortadi	$X_1 \rightarrow Y_{it} (+)$
X_2	Raqamli texnologiyalar, kompyuterlar va dasturiy ta’minot qiymati: Bu o’zgaruvchi raqamli qurilmalar, texnik uskunalar va dasturiy mahsulotlarning qiymatini aks ettiradi.	H_{02}	Kompaniyada mavjud raqamli texnologiyalar soni yoki qiymati ortgan sayin sof foyda ham ijobiy o’zgaradi.	$X_2 \rightarrow Y_{it} (+)$
X_3	Raqamli texnologiyalar orqali sotuv hajmi: Ushbu ko’rsatkich kompaniya tomonidan raqamli kanallar veb-sayt, ilovalar, onlayn platformalar orqali amalga oshirilgan savdo hajmini bildiradi.	H_{03}	Raqamli savdo hajmi ortishi sof foydani oshiradi, chunki bu marketing va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.	$X_3 \rightarrow Y_{it} (+)$

Barcha gipotezalar yillik sof foyda va raqamlashtirish o’rtasida musbat bog’liqlikni taxmin qilib, ekonometrik model tuzilib, panel ma’lumotlari asosida

¹⁰ Muallif tomonidan o’tkazilgan so’rovnoma natijalari.

STATA 15.0 dasturida tahlil qilindi.

Logarifmik transformatsiyaning elastikligi mutanosib bog‘liqlik mavjud bo‘lgan iqtisodiy ma‘lumotlar uchun juda mos kelganligi bois biz barcha ko‘rsatkichlarni natural logarifm shaklida ifodalab oldik. Bunday yondashuv o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi nisbiy o‘zgarishlarni baholash imkonini beradi. Ayniqsa, turli miqyosdagi kompaniyalar bo‘yicha solishtirma tahlil olib borilayotganda yoki ma‘lumotlar sezilarli darajada dispersiyaga ega bo‘lsa, logarifmik model juda samarali hisoblanadi.

Deskriptiv statistika tahliliga ko‘ra, tanlab olingan o‘zgaruvchilarning taqsimotlari normal taqsimotga yaqin ekanligini ko‘rsatdi. Jarque-Bera test natijalari barcha o‘zgaruvchilar uchun normal taqsimot gipotezasi ekonometrik tahlillarda parametrlar panel modellar regressiyasini qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi.

Tanlab olingan kompaniyalarining 2019–2024-yillardagi panel ma‘lumotlari asosida sof yillik foydasiga raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq omillarning ta‘siri tasodifiy samaralar modeli orqali baholandi.

Ushbu model orqali raqamli transformatsiya yo‘nalishiga qaratilgan investitsiyalar va strategik harakatlar kompaniya daromadiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ayniqsa, raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologik xarajatlarning daromadga ta‘siri murakkab va ehtimol kechikkan holda namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa uzoq muddatli strategik yondashuvni talab qiladi (3-jadval).

3-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq omillarning sof foydaga ta‘siri

No	AJ nomi	Regressiya tenglamasi va determenatsiya koeffitsienti –R ²
1.	“O‘zbekneftgaz” AJ	$\ln(\text{Sof_foyda}) = -1.972 + 1.087 \cdot \ln(X_1) - 0.297 \cdot \ln(X_2) + 0.231 \cdot \ln(X_3)$; R ² = 0,9136
2.	“O‘zbektelekom” AJ	$\ln(\text{Sof_foyda}) = 3.972 + 0.97 \cdot \ln(X_1) - 0.17 \cdot \ln(X_2) + 0.37 \cdot \ln(X_3)$; R ² = 0,853
3.	“O‘zagrolizing” AJ	$\ln(\text{Sof_foyda}) = -5.521 + 1.27 \cdot \ln(X_1) - 0.39 \cdot \ln(X_2) + 0.53 \cdot \ln(X_3)$; R ² = 0,886

Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foyda va ishlab chiqarish hajmlari o‘ziga borishi bo‘yicha aniqlangan trend tenglamalariga ko‘ra aniqlik darajasi eng optimal bu eksponensial tenglamalar hisoblanadi, yani ularning korellatsiya hajmi eng yuqori bo‘lib, qolgan tenglamalardagi holat bir muncha noaniqligini ko‘rish mumkin, shu bois prognoz qiymatlarini ushbu tenglamalar bo‘yicha hisoblashni maqsadga muvofiq deb topdik (4-jadval).

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, eksponensial va kvadrat tenglamalar aksiyadorlik jamiyatlarining sof foyda va ishlab chiqarish hajmlarini prognozlashda eng optimal hisoblanadi. Ularning yuqori R² qiymatlari 0.9136 dan 0,99 gacha oraliqda ekanligi ma‘lumotlarning tenglamalarga mosligini va prognozlarning ishonchligini ta‘minlaydi. Tahlil doirasida o‘rganilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida sof foyda va ishlab chiqarish hajmining 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan realistik, pessimistik va optimistik prognozlari ishlab chiqildi (5-jadval).

4-jadval

**Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foyda va ishlab chiqarish hajmlarini
proгноzlash tenglamalari**

№	Sof foydani prognozlash tenglamasi	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmini prognozlash tenglamasi
1.	“O‘zbekneftgaz” AJ	
	$Y = 475,12\ln(x) + 1790,3; R^2 = 0,834$	$Y = 12824,4e^{0,0239x}; R^2=0,9136$
2.	“O‘zbektelekom” AJ	
	$Y=25,388e^{0,1613x}; R^2 = 0,9743$	$Y=0,0798x^2+969,94x-742,65; R^2 = 0,99$
3.	“O‘zagrolizing” AJ	
	$Y=-4590,3x^2+2*10^6x; R^2=0,9992$	$Y= 256,32e0,0365x; R^2 = 0,9866$

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya strategiyasining kompaniyalar faoliyati natijadorligiga sezilarli ta'sir qilishi isbotlanib, raqamlashtirishga tizimli yondashuv moliyaviy barqarorlik va ishlab chiqarish hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

5-jadval

**Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foyda va ishlab chiqarish hajmlari
prognozi ko'rsatkichlari**

№	AJ nomi	Prognoz turi	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Sof foyda prognozi, mlrd. so'm								
1.	“O‘zbekneftgaz” AJ	realistik	3154,4	2342,4	3330,8	2107,9	2314,6	3873,4
		pessimistik	2183,6	1341,3	2299,7	1047,8	1225,8	2756,6
		optimistik	4125,1	3343,6	4361,8	3168,0	3403,5	4990,3
2.	“O‘zbektelekom” AJ	realistik	141,6	146,8	265,9	274,9	283,9	292,9
		pessimistik	141,6	132,4	229,9	227,2	214,4	244,5
		optimistik	141,6	333,3	453,8	464,3	474,9	485,4
3.	“O‘zagrolizing” AJ	realistik	22,4	24,3	26,3	28,2	30,1	32,0
		pessimistik	13,1	15,0	16,8	18,7	20,5	22,3
		optimistik	31,7	33,7	35,7	37,7	39,7	41,7
Ishlab chiqarish hajmi prognozi, mlrd. so'm								
1.	“O‘zbekneftgaz” AJ	realistik	178351,5	208093,7	237835,9	267578,0	297320,2	327062,3
		pessimistik	114674,2	122382,0	134658,8	149460,2	165922,0	183582,5
		optimistik	242028,9	293805,4	341012,9	385695,8	428718,3	470542,1
2.	“O‘zbektelekom” AJ	realistik	10101,7	11382,9	12826,6	14453,3	16286,4	18352,0
		pessimistik	9987,6	10926,2	11787,5	12577,8	13303,0	13968,4
		optimistik	13570,8	20543,4	31098,7	47077,1	71265,3	107881,4
3.	“O‘zagrolizing” AJ	realistik	329,3	339,5	352,8	372,6	382,9	398,7
		pessimistik	239,3	246,7	257,2	274,3	282,0	295,2
		optimistik	419,3	432,3	448,3	470,8	483,8	502,2

5-jadvalda keltirilgan prognoz ko'rsatkichlari “O‘zbekneftgaz”, “O‘zbektelekom” va “O‘zagrolizing” AJlarining 2025–2030-yillarga mo'ljallangan realistik, pessimistik va optimistik senariylarini aks ettiradi. Prognoz ko'rsatkichlari turli senariylar ostida sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu holat ularning raqamli transformatsiya, bozor monitoringi, baho mexanizmlari va tashqi savdo aloqalarini chuqur integratsiya qilish zarurligini taqozo etadi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlar samaradorligini oshirish yo’llari”** deb nomlangan uchinchi bobida raqamli texnologiyalar asosida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarish tizimini takomillashtirishga uslubiy yondashuv amalga oshirilib, funksional tavsiflari bo’yicha aksiyadorlik jamiyatlarida biznes-jarayonlarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo’llash samaradorligi hamda raqamlashtirish salohiyatidan foydalanish darajasini baholash uslubiyati ishlab chiqildi.

O‘zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida global SI tajribalarini bevosita qo’llash murakkab hisoblanadi, sababi: IT infratuzilma to’liq shakllanmagan, ma’lumotlar sifati talab darajasida emas, mutaxassislar etishmaydi va qolaversa boshqaruv madaniyati SIga tayyor emas. Shu sababli, mahalliy sharoitga moslashtirilgan, bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan SI modelini taklif qilamiz (5-rasm).

